

**O'ZBEKISTON QISHLOQ XO'JALIGIDA YER RESURSLARIDAN  
FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ASOSIY  
YO'NALISHLARI**

**Mannopova Muazzam Sultanbekovna**

Farg'ona davlat universiteti,

Jahon va mintaqqa iqtisodiyoti kafedrasi katta o'qituvchisi.

**Ashurov Shoxrux Shukhratovich**

Farg'ona davlat universiteti, 2-kurs magistranti.

**THE MAIN DIREKTIONS OF INCREASING THE EFFICIENCY OF  
THE USE OF LAND RESOURCES IN AGRICULTURE OF UZBEKISTAN**

**Mannopova Muazzam Sultanbekovna**

Senior Lecturer, Department of World and Regional Economy,  
Fergana State University.

**Ashurov Shokhrux Shukhratovich**

Fergana State University, 2nd year of Master's degree.

**ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ  
ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЗЕМЕЛЬНЫХ РЕСУРСОВ В СЕЛЬСКОМ  
ХОЗЯЙСТВЕ УЗБЕКИСТАНА**

**Маннопова Муаззам Султонбековна**

Ферганский государственный университет, ст.преп. кафедры  
Мировой и региональной экономики

**Ашурев Шохрух Шукратович**

Ферганский государственный университет, 2 курс магистратуры.

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada yer resurslarining qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida tutgan o'rni va ahamiyati, shuningdek, yer resurslaridan unumli foydalanishdagi asosiy masalalar va muhim vazifalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar.** Qishloq xo'jaligi, yer resurslari, agrar iqtisodiyot, agrotexnologiya, tejamkor texnologiya, innovatsiya.

Bugungi kunda er resurslari mamlakatimiz aholisining turmush farovonligini ta'minlamoqda va ayni paytda respublikamiz iqtisodiy salohiyatining negizini tashkil etmoqda. Shu bois yer resurslaridan oqilona, unumli va ilmiy asoslangan tarzda foydalanish iqtisodiyotimizni rivojlantirishda muhim ahamiyatga egadir. Demak, yer

resurslari ulkan boylik bo‘libgina qolmasdan, respublikamizning kelajagini belgilab beruvchi muhim omil hamdir. Qolaversa, respublikamizning agrar tarmog‘ida amalgam oshirilayotgan tub islohotlar va tarkibiy o‘zgarishlar zamirida uning asosiy ishlab chiqarish vositasi hisoblangan yerdan, xususan, ekin maydonlardan oqilona va samarali foydalanishni tashkil etish yotadi. Jumladan, mamlakatimizda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning bevosita tashabbusi bilan qabul qilingan hamda izchil amalgam oshirilayotgan 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi va 2019 yil 23 oktyabrdagi «O‘zbekiston respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi farmoni yer resurslaridan samarali foydalanish bo‘yicha yangi bosqichini ta’minlab bermoqda. Bu jarayonning amaliy natijalari belgi va xususiyatlari bugungi kunda hayotimizning barcha javhalarida eng muhim harakatlarida yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Yer resurslaridan oqilona foydalanish va yer munosabatlarini tartibga solishni takomillashtirish, sug‘oriladigan yerlarni meliorativ holatini yaxshilash, melioratsiya va irrigatsiya ob‘ektlari tarmoqlarini rivojlantirish, eng avvalo suv resurslarni tejaydigan zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish, unumдорligi yuqori bo‘lgan qishloq xo‘jaligi texnikasidan foydalanish ko‘zda tutilgan. Hozirgi kunda respublikamizda sug‘oriladigan yerlar 4,31 million gektarni yoki umumiyligi maydonning 9,7 foizini tashkil etadi. Ularda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining to‘qson foizi etishtiriladi. Ekin maydonlarini soz holatga keltirish va yer osti sizot suvlari sathini meyorida ushlab turish ishlari 141 ming kilometr uzunlikdagi kollektor-drenaj tarmog‘i, 3475 ta zax qochirish qudug‘i hamda 123 ta meliorativ nasos stansiyasi orqali bajariladi. Ta‘kidlash joizki, davlatimiz tomonidan mamlakatimizda yerni muxofaza qilish, ayniqsa, ekin maydonlarini yaxshilash ishlariga katta etibor qaratilmoqda. Qishloq xo‘jaligi erlaridan foydalanish samaradorligini oshirish tadbirlarining ahamiyatli tomoni shundaki, bugungi kunda tejamkor va zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy qilish, texnik uskunarlarni o‘zlashtirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Xususan, respublikamiz bo‘yicha 2022 yilda jami 49,5 ming hektar (2021 yilga nisbatan 131 foizga yoki 11,7 ming gektarga ko‘proq) ekin maydonlarida suv tejamkor texnologiyalar joriy qilingan. Shundan 43 ming gektar maydonda tomchilatib sug‘orish tizimi, 2,2 ming gektar maydonda yomg‘irlatib sug‘orish tizimi va 4,3 ming gektar paxta maydonlarida diskret sug‘orish usullari joriy etilgan. Ushu tejamkor texnologiyalar joriy qilingan hududlarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, eng ko‘p qismi Jizzax viloyatida (9,6 ming gektar) joriy qilingan. Farg‘ona viloyatida - 6,2 ming gektarda, Samarqand viloyatida -5,6 ming gektarda, Toshkent, Buxoro va Surxondaryo viloyatlarida - 3,8 ming gektardan, boshqa viloyatlarda esa 2,5-3,5 ming gektar atrofidagi maydonlarda joriy qilingan. Shu bilan birga, qishloq xo‘jaligi vazirligining ma’lumotlariga qaraganda yer va suv resurslaridan samarali foydalanish yo‘nalishida

amalga oshirilgan tadbirlar natijasida 2022 yilda jami 101,8 ming ga (140%, 2021 yilga nisbatan 29,3 ming gektarga ko‘proq) qishloq xo‘jaligi muomalasidan chiqib ketgan yerlar qishloq xo‘jaligi muomalasiga qaytarilgan. Shu jumladan foydalanishdan chiqqan 67,5 ming gektari (172%) sug‘oriladigan yerlar va 34,3 ming gektari (102%) lalmi va yaylov yer maydonlari hisoblanadi. Agar ushbu ma’lumotlarni hududlar bo‘yicha tahlil qilinganda, Qoraqalpog‘iston Respublikasida -12 ming gektar, Samarqand viloyatida -9,2 ming gektar, Jizzax viloyatida -18,6 ming gektar, Qashqdaryo viloyatida -12 ming gektar, Toshkent viloyatida 10,8 ming gektar, Surxondaryo viloyatida -7,1 ming gektar, Navoiy viloyatida - 5,1 ming gektar, Xorazm viloyatida - 4,2 ming gektar, Buxoro va Sirdaryo viloyatlarida -3,3 ming gektardan, Farg‘ona viloyatida - 2,7 ming gektar, Namangan viloyatida -2,5 ming gektar va Andijon viloyatida -2 ming gektar yer maydonlari qaytadan foydalanishga kiritilgan. Eng ko‘p qishloq xo‘jaligi yerlari muomalaga kiritilgan ma’muriy hududlar sifatida Jizzax viloyati va Qoraqalpog‘iston Respublikasi ekanligi, qishloq xo‘jaligi yer maydonlarining muomaladan chiqib ketishidagi asosiy sabablardan biri bu yer maydonlarining tuproq meliorativ holati yomonlashgani va sug‘orish suvlari tanqisligi ekanlididan dalolat beradi. Yuqoridagi tadbirlarni amalga oshirish davomida davlat byudjetidan yo‘naltirilgan 358,4 mlrd so‘mlik mablag‘lar hisobidan 54,3 mingga yerlar foydalanishga kiritish uchun 780 kilometr irrigatsiya-melioratsiya ob’ektlari quriligan va rekonstruksiya qilingan, 76 dona nasos agregatlari o‘rnatalib, 171 dona tik quduqlar qazilgan.

Asosan, qaytadan muomalaga kiritilgan qishloq xo‘jaligi erlari hisobiga qo‘sishma ravishda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari etishtirish imkoniyati yaratildi. Xususan, foydalanishga kiritilgan yer maydonlarining 6,3 ming gektariga ozuqa ekinlari, 5,7 ming gektariga sholi, 4,8 ming gektariga dukkakli ekinlar, 2,7 ming gektariga moyli ekinlar, 2,7 ming gektariga sabzavotlar, 1,7 ming gektariga poliz ekinlari, 44 gektariga kartoshka, 1,6 ming gektariga paxta, 1,1 ming gektariga g‘alla va 5 ming gektariga boshqa ekinlar ekilgan. Shuningdek, 5,1 ming gektar maydonda intensiv bog‘lar, 3,7 ming gektar maydonda tokzorlar va 557 gektarda tutzor barpo etilgan. Yerga oid munosabatlarni tartibga solish tizimini takomillashtirish, er tuzish, erlardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish, hisobga olish hamda baholashni takomillashtirish, davlat boshqaruv organlarining yuridik hamda jismoniy shaxslarning erlardan foydalanish, uni muhofaza qilish tuproq unumdarligini oshirishni ta’minalash sohasida faoliyatini muvofiqlashtirishga yo‘naltirilgan yagona davlat siyosatini amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Ushbu siyosatni ta’minalashda quyidagi muhim yo‘nalishlarni rivojlantirish muhimdir:

- qishloq xo‘jaligi yerlaridan oqilona va yer munosabatlarini tartibga solinishini takomillashtirishni amalga oshirilayotgan ishlarni yanada takomillashtirish;

- sug‘oriladigan yerkarning meliorativ holatini yaxshilash va unumdorligini oshirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni yanada jadallashtirish;
- qishloq aholi yashash punktlaridagi yer maydonlarini, ular to‘g‘risida yer kadastro axborotlarini shakllantirish uchun ro‘yxatdan o‘tkazishni muntazam ravishda tashkil etib borish;
- barcha yer egalari va yerdan foydalanuvchilarni yerdan foydalanish huquqini beruvchi yuridik hujjatlar bilan o‘rnatilgan tartibda ta’minlash;
- yerdidan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish, iqtisodiy rag‘batlantirish tizimini yaratishga yo‘naltirilgan yagona davlat siyosatini amalga oshirilishini ta’minlash;
- yer sohasida amalga oshirilgan ishlar natijalarining muhimligini inobatga olgan holda, yerdan oqilona va samarali foydalanish mavzuida sohadagi mutaxassislarning bilimlarini hamda malakalarini oshirish maqsadida, ular ishtirokida doimiy o‘quv-amaliy seminarlarni tashkil etish;
- zamonaviy talablar darajasida yer monitoringini olib borish, ma’lumotlarning haqqoniyligi va sifatini ta’minlash maqsadida yer tuzish organlaridagi mutaxassislarni zamonaviy texnologiyalar, dasturlar hamda geodezik o‘lchov asboblari bilan ta’minlash;
- avtomatlashtirilgan yer ma’lumotlari tizimini yaratish, yuritish va takomillashtirish;
- yangi texnologiyalar, ilmiy ishlanmalar, uslubiy qo‘llanmalarni o‘rganish maqsadida mutaxassislarni xorijiy davlatlar bilan o‘zaro aloqalarini mustahkamlash;
- sug‘oriladigan yerkarning elektron xaritalarini yaratish va yangilab borish hamda tuproq bonitirovkasi ishlarini belgilangan tartibda bajarish;
- davlat yer kadastrini yuritish bilan bog‘liq bo‘lgan manfaatdor vazirliliklar, davlat qo‘mitalari va idoralar bilan bo‘lgan faoliyatni muvofiqlashtirish.

Xulosa qilib aytganda, yer resurslaridan oqilona foydalanish va yer munosabatlarini tartibga solinishini takomillashtirish, tarkibiy o‘zgartirishlarni chuqurlashtirish va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini izchil rivojlantirish, mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturini izchil amalga oshirilishi, iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirilishi va rivojlantirilishida respublika yer resurslaridan samarali va maqsadli foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

## REFERENCES

1. Mannopova, M. S. (2018). Turizm yo`nalishida ta`lim berishning o`ziga xos xususiyatlari. *Бухоро вилоятининг туристик ва инвестицион салоҳияти ҳалқаро илмий-амалий конференция материаллари*, 1(6), 307-310.
2. Маннопова, М. С. (2019). Хорижий мамлакатларда аҳоли бандлигини таъминлашнинг моделлари ва уларнинг ўзига хос хусусиятлари. *Еврона*

Иттифоқи Erasmus+дастурининг MAGNET – Университетлар Ўзбекистонда ўрта ёш аҳолини ўқитиши ва касбга тайёрлаш марказларининг асосий ҳамкори, 1(5), 150-151.

3. Маннопова, М. С. (2019). Инвестиция бу мамлакат драйвери – истиқболли иқтисодиётнинг кафолатидир. *Фаол инвестициялар ва ижтимоий ривожлантиришинг долзарб масалалари. Халқаро илмий-амалий конференция илмий мақолалар ва материаллари тўплами. Андижон*, 1(7), 106-109.
4. Маннопова, М. С. (2019). Кластеры-как драйвер экономики. *II-Международная научно-практическая конференция Аграрная экономика в условиях глобализации и интеграции ВНИОПТУСК. г.Москва*, 1(9), 23-25.
5. Маннопова, М. С. (2020). Фарғона вилоятида мева-сабзавотчилик соҳасида эришилган ютуқлар ва камчиликлар. *Фарғона вилоятини инновацион ривожлантириши: муаммолар ва ечимлар мавзусидаги Республика илмий-амалий конференция материаллари Фарғона*, 1(6), 124-127.
6. Маннопова, М. С. (2019). Озиқ-овқат саноати равнақининг бекиёс аҳамияти. *Ўзбекистон иқтисодий ахборотномаси*, 1(1), 44-47.
7. Маннопова, М. С. (2022). Ўзбекистонда мева-сабзавотчилик ўйналишидаги кластерларни ривожлантириш ва бошқаришнинг асосий вазифалари. *Biznes-эксперт*, 1(6), 48-52.
8. Халматжанова, Г. Д., & Маннопова, М. С. (2020). РАЗВИТИЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ С УЧЁТОМ ТЕНДЕНЦИЙ РАЗВИТИЯ МИРОВОЙ ЭКОНОМИКИ. In *МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИНИ ИНВЕСТИЦИЯЛАШНИНГ МОЛИЯВИЙ-ХУҚУҚИЙ ВА ИННОВАЦИОН ЖИҲАТЛАРИ* (pp. 238-244).
9. Khalmatjanova, G. D., & Mannopova, M. S. (2021). Priority areas in agricultural development in the Republic of Uzbekistan. In *The Challenge of Sustainability in Agricultural Systems: Volume 1* (pp. 49-54). Cham: Springer International Publishing.
10. Маннопова, М. С. (2019). Основные проблемы в сфере переработки плодоовошной продукции в Республике Узбекистан. *Образование и наука в России и за рубежом*, (16), 175-180.
11. Маннопова, М. С., & Абдуллаева, Ш. Э. (2021). Ўзбекистонда қишлоқ хўжалигини диверсификациялаш жараёнида мева-сабзавот кластерларини ривожлантиришнинг ўзига хос хусусиятларини. *Экономика и социум*, 10, 89.
12. Mannopova, M. C. (2020). РАЗВИТИЕ КЛАСТЕРОВ В ПЛОДООВОЩНОМ НАПРАВЛЕНИИ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ И ИХ ФУНКЦИИ. In *МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИНИ ИНВЕСТИЦИЯЛАШНИНГ МОЛИЯВИЙ-ХУҚУҚИЙ ВА ИННОВАЦИОН ЖИҲАТЛАРИ* (pp. 320-324).

13. Маннопова, М. С., & Хасанов, И. М. (2020). РАЗВИТИЕ ИНВЕСТИЦИЙ–ГАРАНТИЯ ПЕРСПЕКТИВНОЙ ЭКОНОМИКИ. In *МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИНИ ИНВЕСТИЦИЯЛАШНИНГ МОЛИЯВИЙ-ХУҚУҚИЙ ВА ИННОВАЦИОН ЖИҲАТЛАРИ* (pp. 301-306).
14. Mannopova, M. S., & Khalildinov, A. A. (2022). THE IMPORTANCE OF THE EFFECTIVE USE OF FRUIT VEGETABLE CLUSTERS IN AGRICULTURE OF UZBEKISTAN. *Gospodarka i Innowacje.*, 29, 117-120.
15. Mannopova, M. S. (2022). Main Directions of Development of Fruit and Vegetable Clusters in Agriculture of Uzbekistan. *American Journal of Economics and Business Management*, 5(11), 106-109.
16. Mannapova, M., & Abdullayeva, S. (2022). THE WORK DONE AND THE DESIGNATED TASKS FOR THE DEVELOPMENT OF FRUIT AND VEGETABLE CLUSTERS IN UZBEKISTAN. *Gospodarka i Innowacje.*, 24, 1126-1129.
17. Абдуллаева, Ш. Э., & Маннопова, М. С. (2022). Основные направления развития и управления плодовоощными кластерами. *Ta'lim fidoyilari*, 6(7), 507-512.
18. Abdurahimovna, C. D., & Sultanbekovna, M. M. (2022). Cost and Accounting Concepts in Accounting and Their Accounting. *Global Scientific Review*, 4, 21-26.
19. Маннопова, М. С. (2022). Ўзбекистон қишлоқ хўжалигида мева-сабзавотчилик кластерларини ривожлантиришнинг асосий йўналишлари. *New innovations in national education*, 1(6), 12-16.
20. Маннопова, М. С. (2022). Жаҳон мамлакатларида қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини ишлаб чиқаришнинг самарали ёндошувлари. *New innovations in national education*, 1(6), 4-11.
21. Юлдашева, Г. А., & Абдуллаева, Ш. Э. (2021). Инновации в рамках национальных инновационных систем. *Интернаука*, (26), 6-8.
22. Abdullaeva, S. E. (2021). The urgency of attracting investment to banks. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(8), 435-440.
23. Абдуллаева, Ш. (2020). ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ИНВЕСТИЦИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ САМАРАДОРЛИГИ. In *МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИНИ ИНВЕСТИЦИЯЛАШНИНГ МОЛИЯВИЙ-ХУҚУҚИЙ ВА ИННОВАЦИОН ЖИҲАТЛАРИ* (pp. 506-512).
24. Абдуллаева, Ш. Э., & Жакбарова, З. С. (2020). РЕГИОНАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ЗАНЯТОСТИ НАСЕЛЕНИЯ. In *МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИНИ ИНВЕСТИЦИЯЛАШНИНГ МОЛИЯВИЙ-ХУҚУҚИЙ ВА ИННОВАЦИОН ЖИҲАТЛАРИ* (pp. 345-350).

25. Абдуллаева, Ш. Э. (2019). Современное состояние и перспективы развития банковской системы в Узбекистане. *Образование и наука в России и за рубежом*, (16), 180-182.
26. Khakimov, D. R., Kurbanov, D., & Khalildinov, A. A. (2022). Formation of New Economic Mechanisms in the Field of Education. *American Journal of Economics and Business Management*, 5(11), 76-81.
27. Raximov, D. S. (2022). DIRECTIONS OF DIVERSIFYING INNOVATION PROCESSES IN THE INDUSTRY NETWORK. *World Economics and Finance Bulletin*, 16, 107-110.
28. Khakimov, D. R., Khalildinov, A. A., & Abdullaeva, S. E. (2022). THE MAIN FACTORS OF THE DEVELOPMENT OF MARKET RELATIONS IN THE FIELD OF HIGHER EDUCATION. *Gospodarka i Innowacje.*, 29, 94-100.
29. Қурбонов, Д. X. (2022). Олий таълим соҳосида бозор муносабатлари ривожланишининг асосий омиллари. *Biznes-эксперт*, 1(6), 39-41.
30. Khalildinov, A. A., & Ashurov, S. S. (2022). The Importance of Rational Use of Natural Resources in the Economy and Specific Features of its Management. *American Journal of Economics and Business Management*, 5(11), 82-85.
31. Халилдинов, А. А. (2021). Иқтисодиётни рақамлаштиришда инновациялар. *Таълим тизимида ижтимоий-гуманитар фанлар*, 1(6), 296-301.
32. Халилдинов, А. А. (2021). Инвестиция сиёсатининг асосий йўналишлари. *Biznes-эксперт*, 1(6), 146-150.
33. Хакимов, Д. Р. (2022). Олий таълим тизимида янги иқтисодий механизmlарни шакллантириш. *Biznes-эксперт*, 1(6), 34-39.
34. Халилдинов, А. А. (2023). КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИКНИ ТАШКИЛИЙ-ИҚТИСОДИЙ МЕХАНИЗМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. *Journal of new century innovations*, 21(2), 87-96.